



**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti**



**FAN:**

**“MASHINALARDAN  
FOYDALANISH ASOSLARI”**

MAVZU  
**10**

- Mashinaga ta'sir ko'rsatuvchi  
qarshilik  
kuchlarining turlari



Berdimuratov Paraxat Tadjimuratovich



Muhandislik tizimlarni  
boshqarish kafedrasи dotsenti



# **10a-mavzu. Mashinaga ta'sir ko'rsatuvchi qarshilik kuchlarining turlari**

**Reja:**

- 1. Ishchi mashinalar qarshiligining  
turlari.**
- 2. Mashinalarning to'liq va  
solishtirma tortish qarshiliklari**

# Mavzu bo‘yicha bilim saviyasini baholash

## Tushunchalar

*Tayanch iboralar: qarshilik turlari, umumiy qarshilik, foydali va foydasiz qarshiliklar, tuproqni deformasiyalash va irg‘itish, tuproq qarshiligi, materiallar qarshiligi, xarakatlanish qarshiligi, mashinaning tortish va solishtirma qarshiligi.*

## Nazorat savollari

**Qishloq xo‘jaligi mashinasiga qarshi-lik ko‘rsatuvchi omillarga nimalar kiradi?**

Bilaman <b>(dars boshida yoziladi)</b>	Bilishni xohlayman <b>(dars boshida yoziladi)</b>	Bilib oldim <b>(dars oxirida yoziladi)</b>

## 1. Ishchi mashinalar qarshiliklari



Texnologik jarayonlarni bajarishda ishchi mashinalar qarshilik (R<sub>m</sub>) paydo qiladi. Bu qarshilik: salt harakatdagi qarshilik R<sub>s</sub> va ishlagandagi qarshilik R<sub>i</sub> ga ajraladi. Salt harakatlangandagi qarshilik mashinalarning paykal oxirlarida burilishlarida, daladan-dalaga borishda, ish qarshiligi bevosita texnologik jarayonni bajarishda hosil bo‘ladi.

Ish mashinasining qarshiligi ish jarayonining o‘ziga xos xususiyatiga qarab turlichayaniqlanadi.

# Ishchi mashinalar qarshiliklarining turlari



Mashinalar umumiyligi qarshiligidan ikki turga ajratish mumkin.

**Birinchisi – foydasiz qarshiliklar** bo‘lib, asosan mashinani harakatlantirishga va undagi ayrim qarshiliklarni yengishga sarflanadi.

**Ikkinchisi - foydali qarshiliklar** bo‘lib, ishlov berilayotgan texnologik materialni deformasiyalashga, dala bo‘ylab tarqatishga, tuproqqa ko‘mishga va qirqib maydalashga, ba’zi hollarda material bo‘lakchalarini siljitishga sarflanadi.

# Ishlarni bajarishdagi qarshilik turlari

Mashina va qurollar	Ishlarni bajarishga sarflanadigan Qarshiliklar	
	Foydali Qarshiliklar	Befoyda qarshiliklar
Pluglar	Palaxsani kesish, maydalash va ag‘darish	Tuproq bilan ishqalanish Harakatlanish
Kultivatorlar	Tuproqni yumshatish va maydalash O‘tlarni yo‘qotish	Tuproq bilan ishqalanish va bo‘lakchalarini irg‘itish Harakatlanish
Tirmalar	Tuproqni mayinlashtirish	Tuproq bilan ishqalanish va bo‘lakchalarini irg‘itish
Ekkichlar	Egat hosil qilish va ko‘mish Urug‘likni ekish va dala bo‘ylab olib yurish	Chuqurochgich va ko‘mgich-larni tuproq bilan ishqalanishi Urug‘lar va o‘g‘itni ichki qarshiligi Ekish apparati va uzatish mexanizmidagi ishqalanishlar
O‘g‘it sepkichlar	Materialni maydalash va sochish Solinadigan materialni dalada olib yurish	Sepiladigan materialdagagi ichki qarshiligi Sochkich va uzatish mexanizmidagi ishqalanishlar
O‘to‘rgichlar	Poyalarni qirqish va qatorlab uyumlahsh	Qirqish apparatini dala yuzasi va poyalar bilan ishqalanishi Harakatlanish
G‘alla kombayn-lari	Poyalarni qirqish va uzatish Donni boshoqdan ajratish, tozalash, bunkerga uzatish Bunkerdagи donni dala bo‘ylab olib yurish va bo‘shatish. Somonni uyumlahsh	Harakatlanish Detallarni poyalar, don va somon bilan ishqalanishi Uzatish mexanizmlaridagi ishqalanishlar
Paxta terish mashinalari	G‘o‘za tuplarini apparatga yo‘naltirish, deformasiyalash Chanoqlardagi paxtani terib olish, bunkerga uzatish Bunkerdagи paxtani dalada olib yurish va	Harakatlanish Tuplar, ko‘saklar va paxtani apparat detal-lari bilan ishqalanishi. Paxtani uzatish mexanizm-laridagi ishqalanishi

# Ishchi mashinalarning to‘liq qarshiliklari



Qishloq xo‘jaligi mashinalarning to‘liq tortish qarshiligi yerning qiyaligini hisobga quyidagicha topiladi:

$$R_m = K_m b_m \pm G_m (1-\lambda) f \frac{i}{100}$$

Bu yerda:  $b_m$  - mashinaning qamrash kengligi, m;  $K_m$  - mashinaning solishtirma tortish qarshiligi, kN/m;  $G_m$  - mashinaning og‘irligi, kN;  $i$  - yerning qiyaligi, %;  $\lambda$  – yarim osma mashina og‘irligining traktorga beriladigan qismi, paxtachilik mashinalari uchun  $\lambda = 0,5...1,0$ ;  $f$  - mashina g‘ildiraklarining dumalanish koef fisienti; g‘ildiraksiz osma mashinalar uchun  $f=1,0$ .

# Tirkama mashinaning tortish qarshiligi



$$R_{\text{тм}} = K_m b_m \pm G_m i / 100$$

Bu yerda:

$b_m$  - mashinaning qamrash kengligi, m;

$K_m$ —mashinaning solishtirma tortish qarshiligi, kN/m;       $G_m$ —mashinani og‘irligi, kN;       $i$  — yerning qiyaligi, %.



# Osma va yarim osma mashinaning tortish qarshiligi



$$R_{oc} = K_m b_m \pm G_m (1 + \lambda) f i / 100$$

Bu yerda:

$b_m$  - qamrash kengligi, m;

$K_m$  – solishtirma tortish qarshiligi, kN/m;

$G_m$  - mashinani og'irligi, kN;

$i$  - yerning qiyaligi, %.

$\lambda$  - osma mashina og'irligining traktorga beriladigan qismi.

$f$  - dumalanish koeffisienti



# Yuk tashish mashinasining tortish qarshiligi



$$R_{\text{юк}} = (G_{\text{пр}} + G_{\text{юк}}) n_{\text{пр}} K_x$$

Bu yerda:

$G_{\text{пр}}$  va  $G_{\text{юк}}$  – tirkama va undagi yuk og‘irligi, kN;  
 $n_{\text{пр}}$  – agregatdagi tirkamalar soni;

$K_x$ - xarakat qarshiliklari yig‘indisi koeffisienti.



# Murakkab mashinaning tortish qarshiligi



Bu yerda:

$R_m$ - mashinaning tortishga qarshiligi, kN;  
 $v_{tt}$ - mashinaning texnologik tezligi, km/soat;  
 $\eta_{tr}$ - traktorning foydali ish koeffisienti,  $N_{qov}$ - mashinaning ishchi qismlarini xarakatga keltirish uchun sarflanadigan quvvat. kVt.

$$R_m = 3,6(N_m + N_{\text{QOB}})/v_{tt}$$

# Mashinalarning solishtirma qarshiligi



Ishchi mashinaning qamrash kengligi (**B**) ma'lum bo'lganda, **mashinaning solishtirma qarshiligi (Km)** quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$K_m = \frac{R_m}{B}$$

**Paxtachilik mintaqasida qo'llaniladigan qishloq xo'jaligi mashina-qurollarining solishtirma tortish qarshiliklari jadvalda keltirilgan.**

# Paxtachilik mintaqasida qo‘llaniladigan mashinalarning solishtirma qarshiliginini taxminiy qiymatlari

Dala ishlari nomi	Q/x mashina va qurollari	K <sub>M</sub> , кН/м
Tirmalash	BZTS-1,0 tishli og‘ir tirma BZSS-1,0 tishli o‘rtacha tirma	0,4-0,7 0,3-0,6
Diskli tirma bilan yumshatish	BDT-3 diskli og‘ir tirma	2,2-3,6
Mineral o‘g‘itlar sochish	RUM-5 mineral o‘g‘it sochish mashinasi yoki tarelkali o‘g‘it sepgich	6,7-7,3
Egat olish	GX-4 egat - pushta tortgich	0,3-0,6
Chigit ekish	SXU-4 chigit seyalka MVX-5,4	6,0-8,0
Qatqaloqni yumshatish	aylanuvchi motiga	1,2-1,4
G‘o‘za qator oralariga ishlov berish: 60 sm	KXU-4 kul’tivator- oziqlantirgich	0,4-0,8
90 sm		1,9-2,0
Paxta terish	Vertikal shpindelli paxta terish mashinalari	1,5-2,5
G‘o‘zapoyalarni yig‘ish	KV-4 va KV-3,6 kavlagich	3,5-6,0
O‘t o‘rish	QOVdan yuritiladigan o‘to‘rgichlar Makkajo‘xori o‘rish kombayni	0,5-0,7
Makkajo‘xorini doni va silos uchun o‘rish	Silos o‘rish kombayni	1,5-1,7 1,6-2,3

# Plugning to‘liq tortish qarshiligi



Pluglarning to‘liq tortish qarshiligi yerning qiyaligini hisobga olgan holda quyidagicha topiladi:

$$R_{пл} = K_{пл} a b_k n_k \pm G_{пл} (1-\lambda) f \cdot i / 100$$

Bu yerda:  $K_{пл}$ - plugning solishtirma qarshiligi,  $kN/m^2$ ;  $a$  - haydash chuqurligi, m;  $b_k$  - bitta korpusning qamrash kengligi, m;  $n_k$  - korpuslar soni;  $G_{пл}$ - plugning og‘irligi,  $kN$ ;  $i$  - yerning qiyaligi, %;  $\lambda$  – yarim osma plug og‘irligining traktorga beriladigan qismi, paxtachilik pluglar uchun  $\lambda = 0,5...1,0$ ;  $f$  - plug g‘ildiraklarining dumalanish koefisienti; g‘ildiraksiz osma pluglar uchun  $f=1,0$ .

# Tirkama plugning tortish qarshiligi



$$R_{пл} = K_{пл} a b_k n_k \pm G_{пл} i / 100$$

Bu yerda:  $K_{пл}$ - plugning solishtirma qarshiligi,  $kN/m^2$ ;  
 $a$  - haydash chuqurligi, m;  $b_k$  - bitta korpusning qamrash kengligi, m;  $n_k$  - korpuslar soni;  $G_{пл}$ - plug og'irligi, kN;  $i$  - yerning qiyaligi, %.

# Osma va yarim tirkama plugning tortish qarshiligi



$$R_{пл} = K_{пл} \cdot a \cdot b_k \cdot n_k \pm G_{пл} \cdot (1-\lambda) \cdot f \cdot i / 100$$

Bu yerda:  $K_{пл}$  - plugning solishtirma qarshiligi,  $\text{kN}/\text{m}^2$ ;  $a$  - haydash chuqurligi,  $\text{m}$ ;  $b_k$  - bitta korpusning qamrash kengligi,  $\text{m}$ ;  $n_k$  - korpuslar soni;  $G_{пл}$  - plugning og'irligi,  $\text{kN}$ ;  $i$  - yerning qiyaligi, %;  $\lambda$  - yarim osma plug og'irligining traktorga beriladigan qismi, paxtachilik pluglar uchun  $\lambda = 0,5 \dots 1,0$ ;  $f$  - plug g'ildiraklarining dumalanish koeffisienti; g'ildiraksiz osma pluglar uchun  $f = 1,0$ .

# Plugning solishtirma qarshiligi



Plugning qamrash kengligi ( $B_{\text{pl}}$ ) va tuproqqa ishlov berish chuqurligi ( $a$ ) ma'lum bo'lganda, uning solishtirma qarshiligi ( $K_{\text{pl}}$ ) quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{\text{пл}} = \frac{R_{\text{пл}}}{a B_{\text{пл}}}$$

# Plugning solishtirma qarshiliginini miqdorlari

Pluglarning solishtirma tortish qarshiliklari  
(Kpl) turli tuproqlarda, kN/m<sup>2</sup>:

- juda yengil tuproqli (qumli va qumloq) yerlarda - 20 gacha;
- yengil tuproqli (qumloq va qumoq) - 21-35;
- o‘rtacha og‘ir (qumoq, shag‘alli, zichlashib qolgan yerlar) - 36-55;
- og‘ir tuproqli (qumoq, soz tuproq) - 56-80;
- og‘ir (qotib qolgan, soz tuproqli) - 81-90;
- juda og‘ir (zichlashib qolgan, qurib, qotib qolgan) tuproqli yerda - 91-150.

## 2. Mashinalarning qarshiligidagi ta'sir ko'rsatuvchi omillar



- **tabiiy - iqlim sharoitlari:** tuproqning turi va holati, meteorologik sharoitlar, ishlov beriladigan material xossalari;
- **konstruktiv omillar:** ishchi organlar turi, shakli va soni, ularning materiali, mashina massasi, yurish qismining turi va tuzilishi. Bu omillardan eng asosiysi – ishchi organlarning shakli bo‘ladi;
- **texnik - foydalanish omillari:** mashinaning texnik holati: yeyilganlik darajasi, to‘g‘ri sozlanganligi, moylash sifati va b.;
- **ishlash foydalanish omillari:** harakat tezligi, ishlov berish chuqurligi, mashinaning o‘tkazuvchanlik imkoniyatidan foydalanish darajasi.

# Mashina qarshiligini kamaytirish bo‘yicha asosiy chora-tadbirlar



**Konstruktiv tadbirlar:** - osma mashinalarni qo‘llash, past bosimli pnevmatik shinalardan foydalanish, elastik osmalarni o‘rnatish; ishchi organlar sifatini ularning sirtlarini maxsus qoplash hisobiga yaxshilash; shaklini o‘zgartirish, sirpanma ishqalanishni dumalanish ishqalanishiga almashtirish, mashina massasini kamaytirish.

**Foydalanish tadbirlari:** texnik servisni o‘z vaqtida va puxta o‘tkazish; ishchi mashinalarning mexanizmlarini to‘g‘ri yig‘ish va rostlash; mashinalarni to‘g‘ri tirkash yoki osish; harakatning eng maqbul yo‘nalishini tanlash; tuproq yaxshi yetilganda (namligi, qattiqligi jihatdan qoniqarli bo‘lganda) ishslash.

# Davomi



**Tabiiy-iqlim sharoitlarini yaxshilash:**  
dalalarni tekislash, toshlarni,  
butalarni, begona o‘tlarni yo‘qotish,  
tuproqni donador qilish va boshqalar.

**Texnologik tadbirlar:** ishchi  
organlarni takomillashtirish,  
kombaynli agregatlarni qo‘llash,  
jarayonlarni qo‘shib bajarish.

**Diqqat!  
Yozib oling va eslab  
qoling!**

**Har bir fermer xo‘jaligi  
sharoiti uchun yuqorida keltirilgan  
tadbirlarni qo‘llashda mashinani  
bajargan ishining sifati  
agrotexnik talablar darajasida  
bo‘lishi zarur**



**"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti"  
Milliy tadqiqot universiteti**



# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!



Berdimuratov  
Paraxat



Muhandislik tizimlarni  
boshqarish kafedrasи  
dotsenti



+ 998 (71) 237 0586



[b\\_parakhat@mail.ru](mailto:b_parakhat@mail.ru)



+ 998 (97) 157-69-88